



## YOSHLARNING ILM- FANGA BO'LGAN QIZIQISHINI OSHIRISH -KELAJAK TARAQQIYOTINING ASOSI

*Samarqand viloyati Qo'shrabot tumani 48-maktab Boshlang'ich sinf  
o'qituvchisi Xasanova Dilfuza*

Bugungi kunda dunyo tez sur'atlar bilan rivojlanib,ilm-fan va texnologiya inson hayotining ajralmas bo'lagiga aylangan.Bunday jarayonda yosh avlodning ilm-fanga bo'lgan qiziqishini oshirish ,ularni izlanishga ,yangilik yaratishga undash har bir jamiyat uchun ustuvor vazifa hisoblanadi.

Yoshlarning ilmgaga mehr qo'yishi –bu nafaqat ularning individual rivoji, balki butun xalqning ertangi kuni,mamlakat taraqqiyotining kafolatidir.Ilм yo'lida yurgan yoshlар hayotni chuqurroq anglaydi,tanqidiy fikrلaydi va yangicha yondashuvlar bilan jamiyatni o'zgartiradi.

Qolaversa,bugungi globallashuv davrida har bir jamiyatning taraqqiyoti,salohiyati va dunyodagi o'rni ni aniqlab beradigan eng muhim mezonlardan biri bu – ilм sohasidagi yutuqlardir.Texnologik taraqqiyot , sun'iy intellekt, biotexnologiyalar , fazо jisnlarini o'rganish va minglab boshqa kashfiyotlar aynan ilm-fan yordamida yuzaga chiqmoqda.Ammo bunday yutuqlarga erishishning asosiy kuchi bu ilm-fan yo'liga kirgan yoshlarning g'ayrati ,ishonchi va mehnatidir.Shu sababli har bir davlat yoshlarning ilm-fanga bo'lgan qiziqishini kuchaytirishga alohida e'tibor qaratadi.Chunki bugungi yosh avlod- ertangi kunning eng zo'r ixtirochisi,buyuk olim,butun dunyo tan olgan muhandis yoki dasturchi bo'lishi mumkin.

### **Ilm-fanga qiziqish qanday shakllanadi?**

Yosh bola dunyonи o'rganishga intilib tug'iladi.Uhar narsaga qiziqadi , so'raydi,sinaydi,tajriba qiladi.Shunday ekan , ilm-fanga muhabbatni uyg'otish o'z-o'zidan yuz bermaydi, bu ota-onas, ustoz,mahalla,jamiyat va davlatning bирgalikdagi sa'y-harakati natijasida shakllanadi.

Ta'lim-qiziqishni uyg'otadigan kuch!



O'zbekistonda so'ngi yillarda yurtboshimiz SH.Mirziyoyev tomonidan ta'limgizni isloq qilish, zamonaviy metodlarni joriy etish, STEAM yo'nalişlarini kengaytirish orqali yoshlarning ilm-fanga qiziqishini oshirishga katta e'tibor qaratilmoqda. „Ilmiy- amaliy labaratoriylar” , „robototexnika to'garaklari” , „bilimlar bellashuvi” , „yosh matematiklar”, „tilchilar to'garagi” , „Zulfiyaxonim izdoshlari” kabi ko'lab tasabbuslar buning yaqqa lisbitidir. Ammo ta'limgiz nafaqat bilim berishi , balki ilhomlantirishi, o'quvchining fikrini uyg'otishi, savollar tug'dirishi kerak.Bu esa ustozning bilimdonligi, zukkoligi bilan birga ,mehribonligi va sabr-toqatiga ham bog'liq.

### **Rag'bat va e'tibor – har bir yosh uchun muhum.**

Ilmiy loyihalarda ishtirok etgan yoshlarni rag'batlantirish ,ular uchun stipendiyalar ,grantlar, chet elda o'qish imkoniyatlarini yaratish – bu ilm-fanga yo'l ochadigan kalitlardan biridir.Sababi yosh avlod o'z mehnati shu darajada qadrlanishini ko'rsa, o'zini jamiyatga kerakli shaxs sifatida his etadi.Bundan tashqari, bugungi kunda internet ,ijtimoiy tarmoqlar yoshlari hayotining ajralmas qismiga aylangan.Agar bu platformalarda keraksiz va foydasiz narsalarning o'rniga ,ilm-fan haqida sodda,qiziqarli,tushunarli va zamonaviy ruhdagi kontentlar ko'proq bo'lsa , yoshlari o'z vaqtlarini nafaqat ko'ngilochar,balki ilmiy izlanishga sarflay boshlaydi.Shuning uchun biz har birimiz yosh avlod ongiga kerakli va foydali axborot berishga harakat qilishimiz lozim.

Yoshlarning ilm yo'lida izlanishiga,o'r ganishiga kiritilgan sarmoya bu jamiyatning va siz-u bizning eng muhim sarmoyamizdir.Har bir ilmga chanqoq qalbni qo'llab –quvvatlash, ularning savollariga sabr bilan javob berish , o'qib – izlanishiga imkon yaratish bu bugunning emas, kelajagimizning poydevoridir!